

TA'LIMDA INDIVIDUAL YONDASHUV: IMKONIYATLAR VA MUOMMOLAR

Fayzullayev Shaxboz To'ychi o'g'li

Qashqadaryo Viloyati Yakkabog' tumani 104-maktab psixologi

Adres: fayzullayevshaxboz999@gmail.com

Normurodova Feruza Farhod qizi

Shahrisabz Davlat Pedagogika insitiuti talabasi

Adres:feruzanormurodova994@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqola ta'limda individual yondashuv, zamonaviy pedagogikaning muhim tamoyillaridan biridir, Ushbu yondashuv har bir o'quvchining qobiliyatlari, qiziqishlari, ehtiyojlari, va o'rganish sur'atlarini hisobga olib, ta'lim jarayonini shaxsga moslashtirishga qaratilgan. Individual yondashuvning ta'lim sifatini oshirishdagi imkoniyatlari va ta'lim tizimida duch kelinadigan asosiy muommolar tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *Pedagogika, Individual, shaxs, tafakkur, yakka, ta'lim*

Abstract: *This article discusses the individual approach to education, on of the important principles of modern pedagogy. This apporoach aims to personalize the educational process, taking into account each student's abilities, interests, needs and learing pace. The possibilities of an individual approach in improving the quality of education and the main problems faced in the education system are analyzed.*

Keywords: *Pedagogy, individual, person, thinking, alone, education*

Individual yondashuv texnologiyasiga yakka tartibda shug'ullanish xususiyati. "Individual" tushunchasi lotincha so'z bo'lib, yakka tartibda yolg'iz va maxsus shug'ullanish ma'nolarini bildiradi,

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimov asarlarida yoshlarning bilimli, yuksak tafakkur egasi bo'lish borasidagi qarashlar muhim o'rin egallagan bo'lib, ularning intellectual salohiyatini , jamiyat taraqqiyotini ta'minlovchi omil ekanligiga alohida urg'u beriladi.

Individual yondashuv texnologiyasining yolg'iz shug'ullanish xususiyati shundaki, unda bir ta'lim oluvchi bilan shug'ullanishda bir necha ta'lim beruvchi ta'limni amalga oshiruvchi jamoa ishtirok etadi. Mana shu yolg'iz shug'ullanish shakli ta'lim oluvchilarning qiziqishlari, xohish-istaklari va kasb-hunarga bo'lgan munosabatlarini aniqlashda muhim imkoniyatlarni beradi. Shu sababli pedagogika tajribasida mana shunday yolg'iz tartibda shug'ullanish masalasiga alohida e'tibor berib kelinmoqda.

Mustaqil ishlarni tashkil etish, xususan, muayyan mavzu asosida o'quvchilarni kichik ilmiy izlanishlarini olib borishga yo'llash, ularning dunyoqarashlarini yanada boyib borishida poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Ta'limda Individual yondashuvning asosiy muommolari:

1) Resurslarning yetishmasligi-har bir o`quvchiga alohida e`tibor berish ko`p vaqt va kuch talab qiladi. Maktablarda o`qituvchilar soni cheklangan, bu esa individual yondashuvni to`liq amalga oshirishga to`squinlik qiladi.

2) O`qituvchining malakasi-individual yondashuvni samarali qo`llash uchun o`qituvchilarda maxsus metodik ko`nikmalar bo`lishi kerak. Bunday tayyorgarlik yetishmasligi muommoni kuchaytiradi.

3) Baholash tizimidagi cheklovlar-standartlashtirilgan test va baholash tizimi har doim individual yondashuvga mos kelmaydi, chunki o`quvchilar turlicha rivojlanadi.

4) Texnologik imkoniyatlarning cheklanganligi – zamonaviy individual ta`lim uchun texnologiyalar va electron resurslar zarur, lekin har doim maktablarda yoki oilada bular mavjud emas.

XULOSA: Ta`limda individual yondashuv har bir o`quvchining o`ziga xos qobiliyati, qiziqishi, bilish darajasi va o`rganish sur`atini inobatga olgan holda ta`lim-tarbiya jarayonini tashkil etishdir. Bu yondashuv ta`lim sifati va samaradorligini oshirish, shaxsiy salohiyatini yuzaga chiqarish, o`quvchida mustaqil fikrlash va o`ziga ishonchni shakllantirishda muhim rol o`ynaydi.

Demak, ta`limda individual yondashuvni to`laqonli amalga oshirish uchun:

- pedagoglarning malakalarini oshirish;
- o`quv-resurs bazasini boyitish;
- zamonaviy texnologiyalardan foydalanish;
- baholash mezonlarini moslashtirish

Bu esa har bir o`quvchining ehtiyoj va salohiyatini inobatga olgan holda, sifatli va shaxsga yo`naltirilgan ta`limni shakllantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1) I.Karimov " Barkamol avlod orzusi" Tuzuvchilar: Sh.Qurbonov; H,Saidov; R.Ahliddinov (Toshkent) Sharq nashriyot-matbaa konseri 1999-yil (57-bet)

2) Abdulla Avloniy "Odob-bo`stoni va axloq-gulistoni"

3) Minamatov Y.E " Application of modular teaching technology in technology (2021-yil) 911-913-betlar